

JANUBIY O'ZBEKISTONDA TURKIY ELATLARNING ETNIK TARIXI VA GEOGRAFIK JOYLASHUVI

Bolliyev Isoq Almurod o'g'li

Terdu Magistranti

Annotatsiya

Maqolada Janubiy O'zbekistonda turkiy elatlarning etnik tarixi va geografik joylashuvi o'rganilib tadqiq etilgan.

Аннотация

В статье изучается и исследуется этническая история и географическое положение тюркских народов Южного Узбекистана. **Abstract:** In the article, the ethnic history and geographical location of the Turkic peoples in Southern Uzbekistan are studied and researched.

Kalit so'zlar: Turkiy, etnik, elat, millat, migratsiya, xalq, etnik guruh.

KIRISH

Insoniyat tarixi bu - nafaqat davlatlar, buyuk shaxslar va g'oyalar tarixi, balki xalqlar tarixi ham bo'lib, kishilar bir necha ming yillik faoliyati mobaynida davlatlarga asos solgan, ular orasidan buyuk arboblardan yetishib chiqqan, ko'plab madaniyatlar va tillarni yaratib, sharafli ishlar va jangu jadallar qilgan, shuningdek, buyuk kashfiyotlar yaratgan, qahramonlik va, aksincha, fojiali ishlarni amalga oshirgan. Qolaversa, inson biologik mavjudot - tabiatning bir qismi bo'lishi bilan birga kishilik jamiyatidagi evolyutsion taraqqiyot natijasida hamda ijtimoiy omillarning ta'siri tufayli muayyan ijtimoiy guruhlar va jamoalarga bo'linadi. Mana shunday asosiy jamoalardan biri fanda etnos deb yuritiladi.

Biz yashayotgan ona zaminda turli-tuman xalqlar o'zlarining milliy-etnik madaniyati va an'analari bilan boshqalardan ajralib turadi. O'z navbatida har biretnik birlik o'ziga xos shakllanish va etnik rivojlanish tarixiga ega. Har bir xalq, son jihatidan katta yoki kichik bo'lishidan qat'i nazar, o'zida takrorlanmas xususiyatlarni mujassam etgan, o'ziga xos tarixiga ega. Hatto aytilish mumkinki, insoniyat tarixi ana shunday kichik xalqlar tarixidan ham ibtido oladi.

MUXOKAMA VA NATIJALAR

Arxeologik va antropologik ilmiy tadqiqotlar Markaziy Osiyo mintaqasi bir necha ming yillar davomida murakkab etnik jarayonlar, katta va kichik guruhlarining aralashuv makoni bo'lib kelganligini ko'rsatadi. Antropolog tadqiqotchilar fikricha hozirgi kunda Markaziy Osiyoning tub aholisi, asosan, ikki katta irqqa: mongoloid va yevropoid irqiga mansubdir. Mongoloid irqiga qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, yevropoid irqiga bo'lsa o'zbek, tojik, turkman va boshqa

xalqlar kiradi. Lekin ayrim etnik guruhlarda aralash tiplar ham uchraydi. Markaziy Osiyo xalqlarining antropologik qiyofasi miloddan avvalgi I ming yillikda shakllana boshlagan.

Markaziy Osiyo xalqlarining ko'pchiligi Oltoy oilasining turkiy tillar guruhiga kiradigan til va shevalarda so'zlashadi. Bu guruhga o'zbek, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turkman, uyg'ur, tatar tillari kiradi. Turkiy tilda so'zi ashadigan aholi butun mintaqa xalqlarining taxminan 60 foizidan ortig'ini tashkil etadi. Umuman olganda turkiy tillarda so'zlashuvchilarning umumiy soni 130 million kishidan ortiq.

Markaziy Osiyoda yashovchi aholi shahar va qishloqlarda istiqomat qilddi. Oxirgi ma'lumotlarga ko'ra, mintaqada shahar aholisining nufuziga ko'ra eng ko'p sonli aholi O'zbekistonda yashaydi va 15 mln. kishi, ya'ni mamlakat aholisining 51 foizi shaharlarda yashaydi. Ikkinchi o'rinda Qozog'istonda, ya'ni 9,1 mln. kishi shaharlarda istiqomat qiladi. Turkmanistonda- 2,5 mln., Qirg'izistonda 33,9 foiz (1,9 mln. yaqin) aholi yashasa, Tojikistonda umumiy aholisining 26,5 foizi, boshqacha aytganda 2 mln. aholi shaharda yashaydi.

Umuman olganda, hozirgi kunga kelib mintaqada jami 65,6 mln. kishi, ya'ni umumiy aholining 43,8 foizi shaharlarda istiqomat qiladi.

O'zbeklar Markaziy Osiyoning eng qadimgi va nufuziga ko'ra eng ko'p sonli xalqlaridan biri hisoblanadi. O'zbek xalqi o'zining ko'p asrlik boy tarixiga ega. O'zbeklar nafaqat O'zbekiston Respublikasi aholisining asosiy qismini tashkil etadi, balki O'rta Osiyodagi eng ko'p sonli xalqdir. Ma'lumotlarga ko'ra o'zbeklarning umumiy soni 30 milliondan ko'p. O'zbeklar alohida etnik jamoa (elat) bo'lib, O'rta Osiyoning markaziy viloyatlari - Movarounnahr, Xorazm, Yettisuv, qisman Sharqiy Turkistonning g'arbiy mintaqalari va Janubiy Turkistonda shakllangan. O'zbek xalqining asosini hozirgi O'zbekiston hududida qadimdan o'troq yashab, sun'iy sug'orma dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan mahalliy sug'diylar, baxtarlar, xorazmiylar, farg'onaliklar, sak-massagetlar, qang'lar kabi etnik guruhlar tashkil etgan. Shuningdek, Janubiy Sibir, Oltoy, Yettisuv, Sharqiy Turkiston hamda Volga va Ural daryosi bo'ylaridan kelgan etnik komponentlar ham o'zbeklar etnogenezida ishtirok etganligi tarixdan ma'lum. Bu qabila va elatlar, asosan, turkiy va sharqiy eroniy tillarda so'zlashganlar.

Ma'lumki, mil. avv. III asrda Sirdaryoning o'rta oqimida turkiy va sug'diylar ittifoqi asosida Qang' davlati tashkil topgan. Qang' davlati davrida Movarounnahr va unga tutash mintaqalardagi xalqlarning iqtisodiy, siyosiy va etnomadaniy aloqalarining tobora rivojlanib borishi natijasida turkiy-zabon etnoslar ustuvorlik qilib, yangi turkiy etnoslardan biri - qang'ar elati paydo bo'ldi va o'ziga xos uyg'unlashgan madaniyat shakllandi. Tarixiy va arxeologik asarlarda bu madaniyat «Qovunchi madaniyati» nomini olgan. Antropolog olimlarning ta'kidlashlaricha, aynan shu davrlarga kelib, O'rta Osiyoning vodiy va vohalarida yashovchi sug'diylar va qang'arlarning tashqi qiyofalarida hozirgi o'zbek va voha tojiklariga xos antropologik tip to'liq shakllangan. O'zbeklar etnogenezida qatnashgan navbatdagi etnik komponentlar Janubiy Oltoy va Sharqiy Turkistondan ko'chib kelgan yuechji qabilasining bir

tarmog‘i bo‘lib, ular mil. Avv I-milodiy IV asrlarda Kushon saltanatiga asos solgan kushonlar hamda milodiy III-V asrlarda O‘rta Osiyoning markaziy viloyatlariga Janubiy Sibirdan, Jung‘oriyadan, Sharqiy Turkistondan siljigan xioniy, kidariy va eftalivlardir.

Shuningdek, o‘zbeklar etnogeneziga faol ta‘sir o‘tkazgan turkiy etnik komponentlar asosi Turk xoqonligi (VI — VIII asrlar) davrida O‘rta Osiyoning markaziy mintaqalari (Toshkent, Zarafshon, Qashqadaryo, Surxondaryo vohalari, Farg‘ona vodiysi) va Xorazmga kelib joylashib, ma‘lum bir tarixiy davr mobaynida, bu etnik komponentning aksariyat qismi o‘troqlashdi. Turk xoqonligi davrida kirib kelgan turkiy komponentlar va mahalliy aholi o‘rtasidagi etnik-madaniy munosabatlarning rivoji hududdagi etnik jarayonlar taraqqiyotiga katta ta‘sir o‘tkazdi. Ushbu turkiy qatlam madaniy yutuqlarining mahalliy madaniy-xo‘jalik an‘analari bilan jadal uyg‘unlashuvi yuz berdi. Bu davr turkiy va sug‘diy simbiozning hal qiluvchi bosqichlaridan biri bo‘lgan.

VIII asrdan arab va ajam (arab bo‘lmagan yaqin va O‘rta Sharq) xalqlarining O‘rta Osiyoga kirib kelishi mintaqadagi etnik jarayonlarga katta ta‘sir etmagan. Bu davrda aholi etnik tarkibida ma‘lum bir o‘zgarishlar bo‘lgan bo‘lsa-da, Movarounnahrda o‘troq va yarim o‘troq turkiyzabon aholi, sug‘diyalar va Xorazmning tub yerli aholisi o‘z hududlarida qolib, arablar (VII — VIII asrlar), keyinchalik somoniylar (IX asr) hukmronligi ostida yashaganlar.

Umuman olganda, IX asrdan boshlab Movarounnahr mintaqasida yaxlit turkiy etnik qatlam, jonli turkiy til muhiti vujudga kela boshladi va o‘z navbatida sug‘diyalar va boshqa mahalliy etnoslarda ham turkiylashish jarayoni jadallashgan. Elshunos olim K. Shoniyozovning qayd etishicha, IX - X asrlarda tig‘iz etnogenetik jarayon natijasida ko‘plab turkiy qabila va urug‘larning o‘troq hayotga o‘tishi jadal davom etgan, Bu asrlarda Movarounnahr va Xorazmda turkiy etnik qatlam kuchli etnik asosga ega bo‘lgan. Akademik A. Asqarovning ta‘kidlashicha, bu kuchli etnik qatlam asosining aksariyat ko‘pchiligini o‘troqlashgan turg‘un turkiy etnoslar tashkil qilgan.

Qoraxoniylar davrida (X - XI asrlar) Movarounnahr va Xorazmda siyosiy hokimiyat turkiy sulolalarga o‘tishi munosabati bilan o‘zbek xalqi etnogenezining yakuniy bosqichi boshlandi. G‘arbiy Qoraxoniylar davlati doirasida hozirgi o‘zbeklarga xos turkiy etnos qaror topdi va aynan mazkur davrda elatni belgilovchi hudud, til, madaniyat, tarixiy qismatining umumiyligi, etnik o‘zlikni anglash, etnosning uyushqoqligi ma‘lum bir davlat doirasida bo‘lishi, din umumiyligi va bir qancha shu kabi boshqa etnik alomatlar shakllangan. Bu davrda o‘zbeklarning umum elat tili qaror topdi. Movarounnahr va unga tutashgan mintaqalarda yashovchi turkiyzabon aholi; qarluq, chigil, yag‘mo, tuxsi, xalach, arg‘in, o‘g‘uz, qipchoq, uz, qang‘li, singari urug‘lar o‘zlarini bir xalq (elat) sifatida anglay boshlaganlar. Umuman olganda, XI - XII asrning birinchi yarmida elat shakllanishidagi muhim ahamiyatga ega bo‘lgan aksariyat etnik alomatlar o‘z maromiga yetib, o‘zbeklar xalq sifatida shakllangan. XIII asr boshlarida Chingizxon istilosi davrida mo‘g‘ul qo‘shinlari tarkibida ko‘p sonli turkiy etnoslar ham kirib keldi. XV asrga qadar esa ushbu etnoslarning deyarli ko‘p qismida mahalliy aholi

bilan aralashuv jarayoni sodir bo'ldi va ular shakllangan o'zbek elatining keyingi taraqqiyotida ma'lum darajada iz qoldirdilar.

Chigatoy ulusi tilining rivojlanishi hamda keyinchalik Amir Temur va temuriylar davrida iqtisodiy va madaniy taraqqiyot natijasida Movarounnahrda adabiy til takomillashib, «turkiy» yoki «chig'atoy» tili deb nomlangan. Ayniqsa taraqqiy etgan o'zbek adabiy tili Alisher Navoiy davrida eng yuqori nuqtaga ko'tarildi. Ammo xalqning jonli tili ko'p dialektli bo'lib, adabiy til shakllanishida uchta asosiy sheva - qarluq, qipchoq va o'g'uz dialektlari asos bo'lgan. Ma'lumki, shakllangan o'zbek elatining Temur va temuriylar davridagi etnik tarixi va etnomadaniy taraqqiyotiga barlos, jaloyir, qavchin, arlot, qipchoq kabi etnik guruhlar ham faol ta'sir qilgan.

O'zbeklar etnik tarixida XV asr oxiri — XVI asrlar ham muhim davr hisoblanadi. Ushbu bosqichda O'rta Osiyoga mang'it, qo'ng'iroq, nayman, uyg'ur, saroy, qatag'on, qushchi, do'rmon, kenagas, qirq, yuz, ming, bahrin va boshqa Dashti Qipchoq etnik guruhlarining navbatdagi to'liqlini kirib kelishi kuchaygan. Natijada Movarounnahr aholisining etnik qiyofasida mo'g'uliyirq alomatlari ham faollashgan. Dashti Qipchoqdan ikki daryo (Amudaryo va Sirdaryo) oralig'i va Xorazmga kelib o'rnatilgan etnik guruhlar «o'zbek» nomi ostida mahalliy aholi etnik rang-barangligini birmuncha ko'paytirgan bo'lsalar ham, lekin uning etnik tarkibini tubdan o'zgartirib yubormagan. Ushbu etnoslar shakllangan o'zbek xalqining tarkibiga kelib qo'shilgan navbatidagi etnik komponent edi, xolos. Ular Movarounnahr va Xorazm aholisining turmush tarzi, an'analari, madaniyati, xo'jalik faoliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan yangi tipdagi madaniy qatlam hosil qilgan. Ayniqsa, Zarafshon vodiysi va O'zbekistonning janubiy mintaqalari aholisi orasida bu nisbat kuchli seziladi. Mahalliy aholiga ular «o'zbek» nomini berishgan va bu nom Movarounnahr va unga qo'shni viloyatlar aholisi uchun rasmiy ravishda umumiy nom bo'lib qolgan.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish joizki O'zbeklarning millat sifatida rivojlanish jarayoni O'zbekiston mustaqillikka erishgan sanadan boshlab yangicha mazmun kasb etdi. Tarixiy tomlaridan kuch olgan o'zbek xalqi madaniyati, milliy tafakkuri, urf-odatlarini, turmush tarzida o'ziga xos uyg'unlash va yangilanish pallasiga qadam qo'ydi. O'zbeklarning moddiy va ma'naviy madaniyati o'ziga xos va boydir. Uning eng yaxshi tomonlari an'anaga aylanib, hozirgacha saqlanib kelmoqda.

REFERENCES

1. Абуший Хасан Ато. Туркий кавмлар тарихи / Нашрга тайёрловчи Поён Равшанов. — Тошкент, 1995.
2. Дониёров А. Х. Марказий Осиё халқлари этнологияси, этногенези ва этник тарихи. Дарслик. — Тошкент: ТДШИ, 2009.
3. Doniyorov A., Bo'riyev O., Ashirov A. Markaziy Osiyo xalqlari etnografiyasi, etnogenezi va etnik tarixi. - T., 2011.